

OSVALD SHPENGLERNING “YEVROPA QUYOSHINING BOTISHI” ASARIDA SIVILIZATSIYA TANAZZULI KONSEPSIYASI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

Shomuqimov L.R.

TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 2 – kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Izzetova E.M.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Osvald Shpenglarning “Evropa quyoshining botishi” asarida ilgari surilgan sivilizatsiya tanazzuli haqidagi konsepsiya falsafiy, tarixiy va metodologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shpengler tomonidan ishlab chiqilgan madaniyat va sivilizatsiyaning tsiklik rivojlanishi modeli, “Faust ruhiyati” tushunchasi, madaniyatning biologik metaforasi hamda G‘arb dunyosining sivilizatsiya bosqichiga kirgani haqidagi mulohazalar izchil o‘rganiladi. Tadqiqotda Shpengler nazariyasining kuchli va zaif jihatlari, uni tanqid qilgan yondashuvlar, shuningdek, XXI asr global jarayonlari fonida mazkur konsepsiyaning qayta talqin qilinishi ilmiy tahlil markaziga chiqariladi. Maqolada muallif tomonidan Shpengler g‘oyalarining zamonaviy sivilizatsiya jarayonlari bilan qanchalik uyg‘unlashishi, uning bashoratlarining hozirgi geosiyosiy va madaniy muhitga taalluqliligi xolis baholanadi. Tadqiqot natijalari madaniyatshunoslik, sivilizatsiya nazariyasi va tarix falsafasi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga qo‘shimcha nazariy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: *Osvald Shpengler, sivilizatsiya tanazzuli, G‘arb madaniyati, tarixning tsiklik modeli, madaniyat va sivilizatsiya, “Faust ruhiyati”, tarix falsafasi, morfologik yondashuv, modernizatsiya, global jarayonlar, geosiyosiy inqiroz, postmodernizm, madaniyat morfologiyasi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье с философской, исторической и методологической точек зрения анализируется концепция упадка цивилизации, выдвинутая в произведении Освальда Шпенглера "Закат европейского солнца." Последовательно изучаются разработанная Шпенглером модель циклического развития культуры и цивилизации, понятие "фаустовского духа," биологическая метафора культуры и размышления о вступлении западного мира в стадию цивилизации. В исследовании в центр научного анализа выдвигаются сильные и слабые стороны теории Шпенглера, подходы, которые ее критиковали, а также переосмысление этой концепции на фоне

глобальных процессов XXI века. В статье автор объективно оценивает, насколько идеи Шпенглера согласуются с современными цивилизационными процессами, и актуальность его предсказаний для современной геополитической и культурной среды. Результаты исследования применяются в области культурологии, теории цивилизации и философии истории.

Ключевые слова: Освальд Шпенглер, упадок цивилизации, западная культура, циклическая модель истории, культура и цивилизация, "фаустовский дух," философия истории, морфологический подход, модернизация, глобальные процессы, геополитический кризис, постмодернизм, морфология культуры.

ABSTRACT

This article analyzes the concept of the decline of civilization put forward in Oswald Spengler's work "The Fall of the European Sun" from a philosophical, historical, and methodological perspective. Schpengler's developed model of the cyclical development of culture and civilization, the concept of "faustian spirit," the biological metaphor of culture, and reflections on the Western world's entry into the stage of civilization are consistently studied. The research focuses on the strengths and weaknesses of Spengler's theory, the approaches that criticized it, and the reinterpretation of this concept against the backdrop of 21st-century global processes. In the article, the author objectively assesses the extent to which Spengler's ideas align with modern civilizational processes and the relevance of his predictions to the current geopolitical and cultural environment. The research results are applied in the field of cultural studies, the theory of civilization, and the philosophy of history.

Keywords: Oswald Spengler, decline of civilization, Western culture, cyclical model of history, culture and civilization, "faustian spirit," philosophy of history, morphological approach, modernization, global processes, geopolitical crisis, postmodernism, morphology of culture.

KIRISH

XX asr boshlarida Yevropada yuzaga kelgan falsafiy izlanishlar, sivilizatsiya taqdiri haqida chuqur intellektual bahslar va global o'zgarishlarning keskinlashuvi Osvald Shpenglarning tarix falsafasiga oid qarashlarini shakllantirish uchun qulay zamin yaratdi. Birinchi jahon urushi oqibatida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik, an'anaviy qadriyatlarining yemirilishi, demokratik institutlar inqirozi va yangi geosiyosiy kuchlarning paydo bo'lishi Shpenglarning "Yevropa quyoshining botishi" asarida ilgari surilgan madaniyat va sivilizatsiyaning tsiklik rivojlanishi haqidagi tahlillarini dolzarb mavzuga aylantirdi. Muallifning fikricha, tarix chiziqli taraqqiyot asosida rivojlanmaydi, aksincha bir-biridan mustaqil madaniy organizmlarning

tug‘ilish, kamolotga yetish, qarish va yemirilish davrlarini o‘z ichiga oladi. Shpengler bu modelni G‘arb dunyosiga qo‘llab, uning ijodiy salohiyati tugagan va sivilizatsiya bosqichiga o‘tganini ta’kidlaydi.

Shpenglarning konsepsiyasi o‘z zamonidan boshlab falsafiy jamoatchilikda keng bahslarga sabab bo‘lgan. Chunki u Yevropa markazchiligini rad etadi, sivilizatsiyalarni teng maqomdagi tarixiy subyekt sifatida ko‘rib, ularning rivojlanishida umumiy qonuniyatlar mavjudligini ta’kidlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Osvald Shpenglarning intellektual shakllanishi XX asr boshlaridagi Yevropa ijtimoiy-falsafiy muhitining murakkab jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Uning ilmiy tafakkuri bir yoqlama yoki tor doiradagi ilmiy maktab bilan cheklanmagan, aksincha, tarix, san‘at, matematika, tabiiy fanlar, falsafa va madaniyatshunoslik kabi keng sohalarning o‘zaro ta’siri ostida shakllangan. Shpenglarning ta’lim olgan universitetlari — Myunxen, Berlin va Gamburg ilmiy muhitlari unga turli falsafiy yo‘nalishlar bilan yaqindan tanishish imkonini bergan. Aynan shu intellektual rang-baranglik keyinchalik uning tarix falsafasiga oid yondashuvini shakllantirgan determinatsion omillardan biri sifatida baholanadi. Shpenglarning ilmiy faoliyati dastlab adabiyotshunoslik va san‘at tahlili bilan bog‘liq bo‘lgan. U Goethe, Nietzsche, Schiller singari klassik ijodkorlarning asarlarini chuqur o‘rganib, madaniy taraqqiyotning ichki qonuniyatlarini izlashga qiziqish bildirgan. Uning dastlabki maqolalarida ham tarixiy hodisalarni san‘at va estetika bilan bog‘lab talqin qilishga intilish seziladi. Shpengler uchun madaniyat insoniyatning ruhiy ifodasi bo‘lib, u shunchaki tashqi hodisalar majmui emas, balki o‘ziga xos ichki dinamika va ma’naviy mohiyatga ega fenomen sifatida tushuniladi.

Ilmiy faoliyatining shakllanishiga jiddiy turtki bergan omillardan biri Yevropada sodir bo‘layotgan siyosiy siljishlar edi. Xususan, Birinchi jahon urushi jarayonlari Shpenglerni G‘arb tsivilizatsiyasining ichki poydevorlarini qayta baholashga undadi. Urushning vayronkor oqibatlarini kuzatgan Shpengler Yevropa madaniy tizimining ichki inqirozi masalasini chuqur o‘rganishga kirishdi. U tarixni chiziqli ravnaq jarayoni sifatida emas, balki o‘z hayotiy tsikliga ega mustaqil madaniy organizmlar sifatida talqin qilishga asos solgan nazariy tizimini shakllantirdi.

Shpenglarning ilmiy faoliyati uning mustaqil fikr yurita oladigan tadqiqotchi ekanini ko‘rsatadi. U ilmiy maktablarga qat’iy sodiq bo‘lmagan, aksincha, o‘z qarashlarini turli intellektual manbalar asosida yaratgan. Xususan, u tarixiy taqqiyosiy tahlil, geosiyosiy kuzatuvlar, san‘at evolyutsiyasini o‘rganish va madaniyatshunoslikdagi turli metodlarni uyg‘unlashtira olgan. Natijada Shpengler

yaratgan “madaniyat morfologiyasi” konsepsiyasi XX asr tarix falsafasi rivojiga kuchli ta’sir ko’rsatgan fundamental nazariy paradigma sifatida shakllandi.

Shpenglarning dunyoqarashi turli falsafiy manbalar tutashgan nuqtada shakllangan bo‘lib, uning nazariyasini to‘g‘ri anglash uchun bu manbalarni tahlil qilish muhimdir. Uning intellektual ildizlarini uch asosiy oqim — romantizm, ibtidoiy tarix falsafasi va morfologik yondashuv tashkil etadi. Ushbu manbalar Shpengler tafakkuridagi ko‘plab g‘oyaviy qatlamlarning shakllanishiga zamin yaratgan. Shpenglarning tarixni talqin etishida romantizm muhim o‘rin tutadi. Romantizm vakillari tarixni ruhiy hodisa sifatida ko‘rganidek, Shpengler ham madaniyatni tug‘ilish, kamolot va tanazzul bosqichlariga ega organik organizm sifatida tasvirlaydi. Uning madaniyat haqidagi qarashlarida romantiklarning milliy ruh, madaniy o‘ziga xoslik va tabiat–madaniyat uyg‘unligi haqidagi g‘oyalari yaqqol seziladi. Madaniyatni “jonli mavjudot” sifatida talqin qilishi ham romantik organik metaforalariga tayanadi. Shpengler qarashlariga Viko, Herder va Burckhardtning ibtidoiy tarix falsafasi kuchli ta’sir ko’rsatgan. Bu yo‘nalish yagona universal taraqqiyot modelini rad etib, har bir madaniyatning o‘z rivojlanish qonuniga ega ekanini ta’kidlaydi. Shpengler ham madaniyatlarni “yopiq dunyo” deb bilib, ularning taqdiri ichki ritm bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari suradi. Uning madaniyat o‘z ruhiy energiyasi asosida rivojlanadi degan g‘oyasi ham aynan shu manbalar bilan bog‘liq.

Shpengler tarix falsafasida morfologik metodga tayangan bo‘lib, madaniyatlarni biologik shakllar kabi evolyutsion jarayon sifatida ko‘radi. “Madaniyat morfologiyasi” konsepsiyasi har bir madaniyatning o‘z ruhiga, uslubiga va hayotiy davriga ega ekanini ta’kidlaydi. U madaniyatni tashqi hodisalardan ko‘ra ichki mazmun orqali tahlil qiladi va shu asosda madaniyatlar tsikli haqidagi nazariyasini yaratadi. Shpengler tarix falsafasiga yangi paradigma olib kirgan mutafakkir sifatida e’tirof etiladi. U XIX–XX asrga xos bo‘lgan chiziqli progress tushunchasini rad etib, tarixni universal qonunlarga bo‘ysunmaydigan, mustaqil ritmga ega madaniy organizmlar rivoji sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, madaniyatning mohiyati uning ichki ma’naviy energiyasida namoyon bo‘ladi. Madaniyat kamolotga yetgach, sivilizatsiya bosqichiga o‘tadi va bu bosqich ijodiy kuchning so‘nishi, ratsionalizm va texnokratiya hukmronligi bilan belgilanadi. Shuning uchun Shpengler yondashuvi optimistik emas, balki madaniyatlarning ichki inqirozini ko‘rsatadigan pesimist talqindir.

Shpenglarning tarix falsafasidagi o‘rni yana shundaki, u tarixiy umumlashmalarni madaniy shakllar asosida quradi. U Yevropa, Arab-Islom, Xitoy, Hind, Antik dunyo singari madaniyatlarni bir-biridan mustaqil hayotiy organizmlar

sifatida tasniflab, ularning rivojlanish bosqichlarini qiyosiy taqqoslaydi. Bu yondashuv unga tarixiy jarayonlarni ko‘p markazli tarzda tushunish imkonini beradi. Tarixiy jarayonning markazi bitta madaniyat emas, balki har biri o‘z dunyoqarashiga, o‘z ruhiga ega sivilizatsiyalar majmui sifatida talqin qilinadi. Shpenglarning bu qarashi keyinchalik sivilizatsiyalar nazariyasini rivojlantirgan ko‘plab mutafakkirlarga, jumladan, Toynbi, Sorokin va Huntington kabi olimlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi [1. B. 72-73]. Shpengler tarix falsafasining strukturaviy tahlilga o‘tishida ham muhim rol o‘ynagan. U tarixni voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki madaniyatning ichki tuzilmasi va uning o‘zgarish dinamikasi orqali tushunishni taklif etadi. Bu yondashuv tarixshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalish — madaniyat morfologiyasining shakllanishiga zamin yaratdi. Natijada tarixshunoslikning metodologik imkoniyatlari kengaydi, turli sivilizatsiyalarning taraqqiyotini bir-biriga qiyoslash va ularning o‘zaro aloqalarini tahlil qilishning yangi nazariy asosi vujudga keldi.

Shpenglarning tarix falsafasiga qo‘shgan hissasi bugungi ilmiy bahslarda ham dolzarbdir. Globallashuv, geosiyosiy tanglik va raqamli sivilizatsiyaning kengayishi uning g‘oyalariga qiziqishni oshirmoqda. Chunki u ta‘kidlagan sivilizatsiya tanazzuli omillari — texnokratiya hukmronligi, massaviy ongning kuchayishi, siyosiy markazlashuv va qadriyatlar inqirozi — hozirgi dunyoda yaqqol sezilmoqda. Shu bois Shpengler merosi tarix falsafasi bilan birga sotsiologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham muhim nazariy manba bo‘lib qolmoqda.

Shpenglarning “Evropa quyoshining botishi” asaridagi asosiy g‘oya — tarixning tsiklik rivojlanishidir. U tarixni chiziqli progress sifatida talqin etishni rad etib, insoniyatni alohida madaniyatlar hayotiy tsikllarining yig‘indisi deb ko‘radi. Har bir madaniyat tug‘ilish, kamolot, qarish va tanazzuldan iborat tabiiy hayot davriga ega. Bu jarayon uch bosqichda namoyon bo‘ladi: madaniyat, sivilizatsiya va tanazzul. Madaniyat bosqichi ijodkorlikning eng yuqori davri bo‘lib, unda san‘at, din, falsafa va ilm uyg‘un ravishda rivojlanadi. Shpengler uchun madaniyat — ruhiy energiya va ijodiy kuchlarning eng faol ifodasidir.

Sivilizatsiya bosqichi esa madaniyatning ichki quvvati susayib, tashqi mexanik kuchlar ustuvorlik qila boshlagan davrni bildiradi. Bu bosqichda ko‘proq texnika, texnologiya, rasmiy institutlar, iqtisodiy raqobat va massaviy ong Yetakchi o‘ringa chiqadi. Shpengler sivilizatsiyaning madaniyatning tabiiy “qarish” pallasi deb hisoblaydi. Sivilizatsiya davrida ijodiy kuchlar kamayadi, shakllangan qadriyatlar esa asta-sekin o‘z ma‘nosini yo‘qotadi. Tanazzul bosqichi madaniyat tarixidagi oxirgi palla bo‘lib, bu davrda sivilizatsiya o‘z ichki dinamikasini saqlay olmaydi. Siyosiy beqarorlik, ma‘naviy inqiroz, texnokratiyaning haddan tashqari kuchayishi va

jamiyatning ma'nosizlashuvi madaniyatning tugashiga olib keladi. Shpengler fikricha, Yevropa sivilizatsiyasi XX asr boshlaridayoq bu jarayonning yakuniy bosqichiga kirgan. Shpenglarning tsiklik modeli tarixga yangi nazariy qarash olib kiritgan bo'lsun, keyinchalik sivilizatsiyalar taqqiyosini o'rgangan ko'plab olimlarga ta'sir ko'rsatgan. Uning yondashuvi tarixni evolyutsion emas, balki murakkab organizmik jarayon sifatida talqin etishning yangi metodologik shaklini yaratgan.

Shpengler konsepsiyasining yana bir markaziy g'oyasi — Yevropa madaniyatining “Faust ruhiyati” bilan belgilanishidir. Muallifning fikricha, har bir madaniyatning mohiyatini tushunish uchun uning ichki ruhiy tamoyilini aniqlash zarur. Yevropa madaniyati uchun bu tamoyil “cheksizlikka intilish”, “mavhumlikning zabt etilishi” va “ruhning tashqi olamni egallash ishtiyoqi” bilan bog'liq bo'lgan “Faust ruhi”dir. Shpengler bu obrazni Goethe yaratgan Faust timsoli orqali umumlashtiradi va uni Yevropa sivilizatsiyasining metaforik markazi sifatida ko'rsatadi.

“Faust ruhiyati”ning asosiy xususiyati — chegarasiz kenglikka, erkinlikka va doimiy izlanishga intilishdir. Bu ruhiy energiya ilm-fan, texnika, huquq, falsafa, san'at va siyosiy tizimlarda o'z aksini topgan. Masalan, matematikada cheksizlik tushunchasining rivoji, geografik kashfiyotlar, texnik inqiloblar va ilmiy tafakkurning keng miqyosda o'sishi Shpenglarning fikriga ko'ra aynan “faustik ruh”ning mahsulidir. Yevropa madaniyati o'zini tabiatni egallash, tabiat qonunlarini ochish va uni boshqarish orqali namoyon qiladi. Biroq Shpenglarning talqiniga ko'ra, “Faust ruhiyati”ning yana bir jihati bor: uning energiyasi cheksiz bo'lganiga qaramay, madaniyatning ichki ritmi bir vaqt kelib susayadi va sivilizatsiya bosqichiga o'tadi. Bu o'tish jarayoni Yevropa madaniyati uchun XX asrda yuzaga chiqqan inqirozlar fonida yaqqol ko'rinadi. Fan va texnika yutuqlari kuchaygan sari madaniyatning ruhiy mazmuni kamayib boradi, natijada jamiyatda mexaniklashtirilgan, ma'nosiz massaviylik ustuvorlik qiladi [2, B.183].

“Faust ruhiyati” konsepsiyasi Shpenglarga Yevropa madaniyatining tarixiy xususiyatlarini boshqa madaniyatlardan ajratib turuvchi mezonlar orqali izohlash imkonini beradi. Uning fikricha, bu ruhiyat madaniyatning ijodiy davrida kuchli bo'lgan, ammo sivilizatsiya bosqichida o'z ma'nosini yo'qota boshlagan. Ushbu qarash Shpenglarning umumiy tarixi falsafasida Yevropa madaniyati uchun o'ziga xos tanqidiy baho berish imkonini yaratadi.

Osvald Shpengler tarix falsafasiga olib kiritgan eng o'ziga xos yondashuvlardan biri — madaniyatni biologik organizm sifatida talqin qilishdir. U madaniyatni inson yoki tirik mavjudot kabi o'z hayotiy bosqichlariga ega murakkab tizim deb qaraydi. Shpengler nazariyasida madaniyatning rivojlanishi oddiy tarixiy jarayon emas, balki

ichki ruhiy energiya bilan boshqariladigan organik harakatdir. Shu bois u madaniyatni “jonli mavjudot” deb atab, uning harakatini tug‘ilish, yetilish va qarish kabi bosqichlar orqali izohlaydi. Tug‘ilish bosqichi madaniyatning ichki ruhi shakllanadigan, uning eng chuqur ma’naviy tamoyillari paydo bo‘ladigan davrdir. Bu davrda mifologiya, diniy dunyoqarash, dastlabki san’at shakllari va ruhiy-intuitiv bilish jarayonlari kuchli bo‘ladi. Shpengler fikricha, tug‘ilish pallasida madaniyatning eng sezgir va ruhiy jihatdan to‘yingan davridir. Madaniyat o‘ziga xos yo‘nalish tanlaydi, dunyoni qanday qabul qilishi va qanday tarzda ifodalanishi aynan shu davrda belgilanadi.

Yetilish bosqichi madaniyatning ijodiy kuchi to‘la namoyon bo‘ladigan davrni anglatadi. Bu bosqichda san’at, falsafa, siyosat, me’morchilik va ilm-fan yuksak nuqtasiga yetadi. Madaniyatning uslubi shakllanadi, u o‘zining eng murakkab, izchil va uyg‘un shakllarini yaratadi. Shpengler uchun yetilish pallasida madaniyat o‘z tarixiy missiyasini bajaradi va o‘zining haqiqiy mohiyatini butun kuchi bilan ifodalaydi. Qarish bosqichi esa madaniyatning ichki ijodiy quvvatining susayishini bildiradi. Bu davrda madaniyatning mazmuni asta-sekin yo‘qolib, uning shakllari mexaniklashadi. Tashqi taraqqiyot — texnika, siyosiy markazlashuv, iqtisodiy kuchayish — ichki ruhiy mazmun hisobiga o‘sadi. Natijada madaniyat o‘zining tabiiy tsikliga ko‘ra “sivilizatsiya” bosqichiga o‘tadi. Shpenglarning talqinida qarish — tanazzulning boshlanishi bo‘lib, bu davr madaniyatning tugash jarayoniga olib keladi.

Shpenglarning biologik metaforasi tarixga yangicha qarash imkonini yaratdi. Bu model orqali u madaniy jarayonlarning vaqtinchaligi, murakkabligi va ichki ritmga asoslangan tabiiy o‘zgarishlarini tahlil qiladi. Madaniyatning bu tarzda talqin qilinishi tarixiy voqealarga organik yondashuvni kuchaytirib, sivilizatsiya jarayonlarini tushunishda metodologik yangilikka asos bo‘ldi.

Shpenglarning konsepsiyasida G‘arb dunyosining tarixiy taqdiri alohida o‘rin tutadi. U Yevropa madaniyati rivojlanishini organik tsikl tamoyillari asosida tahlil qilib, uning XX asrga kelib sivilizatsiya bosqichiga kirganini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, G‘arb madaniyati o‘zining ijodiy potensialidan to‘liq foydalanib bo‘lgan, uning ma’naviy energiyasi pasaygan va u endi mexaniklashgan sivilizatsiya tarkibiga aylangan. Shpengler bu jarayonni madaniyatning tabiiy qarishi sifatida ko‘rsatadi. Sivilizatsiya bosqichiga o‘tishning asosiy belgilaridan biri — G‘arb jamiyatida texnika va ratsional fikrlashning haddan tashqari kuchayishidir. Ilmiy taraqqiyotning jadal o‘sishi, texnokratik boshqaruvning ustuvor bo‘lishi, insonning ichki ma’naviy ehtiyojlari o‘rniga tashqi qudrat va samaradorlikka yo‘naltirilgan tizimning paydo bo‘lishi sivilizatsiyaning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shpengler buni “ijtimoiy

mexanizatsiya” deb atab, bunday jarayonda insonning ruhiy va estetik ehtiyojlari ikkinchi o‘ringa tushib qolishini ta’kidlaydi.

G‘arb sivilizatsiyasining yana bir muhim belgisi — shaharlarning haddan tashqari yiriklashuvi. Shpenglarning fikricha, katta shaharlar madaniyatning ijodiy ruhini yemiruvchi asosiy omildir. Chunki keng metropoliya massaviylik, anonimlik, rasmiylik va individual ijodning yo‘qolishiga olib keladi. Shahar o‘zining iqtisodiy va siyosiy markazlashuvi orqali madaniyatni “mexanik makon”ga aylantiradi. Natijada madaniyatning ruhiy dinamikasi yo‘qolib, faqat tashqi shakllar saqlanib qoladi. Sivilizatsiya bosqichiga kirish jarayonining yana bir belgisi — siyosiy tizimlar mutlaq markazlashishi, davlatning kuchayishi va jahon miqyosidagi raqobatning keskinlashuvidir. Shpenglarning talqinida bu bosqichda jamiyatning asosiy ehtirolari ijodga emas, hokimiyat, qudrat va iqtisodiy ustunlikka yo‘naltiriladi. Bu esa sivilizatsiyani muqarrar ravishda keskin to‘qnashuvlar, imperialistik siyosat va keng miqyosdagi geosiyosiy qarama-qarshiliklarga olib keladi.

Shpengler nazariyasi bo‘yicha G‘arb dunyosining sivilizatsiya bosqichiga kirishi uning tanazzul davrining boshlanishini anglatadi. Tanazzul bu yerda bevosita halokat emas, balki madaniyatning ruhiy markazi so‘nib, uning tashqi mexanik shakllarining ustunlikka ega bo‘lish jarayonidir. Bu tahlil Shpenglarga G‘arb sivilizatsiyasining tarixiy istiqbolini baholashda pesimist xulosa chiqarish imkonini beradi. Osvald Shpenglarning tarix falsafasida madaniyatni tirik organizm sifatida talqin qilish konsepsiyasi markaziy o‘rin egallaydi. Uning fikricha, madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan sun‘iy konstruktsiya emas, balki o‘ziga xos biologik tabiatga ega bo‘lgan, tug‘ilishdan to tanazzulgacha bo‘lgan tabiiy tsiklni o‘z ichiga olgan tirik tizimdir. Shpengler madaniyatni tashqi belgilar, siyosiy institutlar yoki iqtisodiy jarayonlar orqali emas, balki uning ichki ruhiy mazmuni va tashqi shakllariga hayot bag‘ishlaydigan energiya orqali baholaydi. Shu bois madaniyatning shakllanishi, o‘shishi, yetilishi va yemirilishi uning ichki ritmiga, o‘ziga xos “ruhiy yadrosi”ga bog‘liq.

Madaniyatning organizm sifatida tushunilishi tarixshunoslikdagi evolyutsion tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishga olib kelgan. Shpengler uchun madaniyat hech qachon cheksiz taraqqiyotga ega emas: har bir madaniyat ma’lum davrda o‘z potensialini to‘liq sarflab bo‘ladi va shundan so‘ng uning yangi ijodiy shakllar yaratish qobiliyati susayadi. Natijada madaniyat o‘zining tabiiy tsiklida sivilizatsiya bosqichiga o‘tadi — bu davr madaniyatning mexaniklashuvi va ichki ruhiy energiyasining so‘nishi bilan bog‘liq.

Shpenglarning yondashuvida sivilizatsiyaning boshlanishi madaniyatning ijodiy quvvati tugab, uning o‘rnini texnika va ratsional fikrlash egallay boshlagan davr bilan

belgilanadi. Sivilizatsiya bosqichida ilmiy-texnik taraqqiyot jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, texnika esa nafaqat ishlab chiqarish vositasi, balki ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi markaziy tamoyilga aylanadi. Texnika hukmronligi bilan jamiyatda ma'naviy tamoyillar, estetik qadriyatlar va ilhomiy izlanishlar orqaga suriladi. Shpenglarga ko'ra, sivilizatsiya bosqichida yuzaga keladigan eng muhim o'zgarish — tabiiy dunyoni anglashning ruhiy modelidan standartlashtirilgan, hisob-kitobga asoslangan, rasmiylashtirilgan fikrlash shakliga o'tishdir. Bu ratsionalizmning haddan tashqari kuchayishi natijasida insonning borliqni tushunish usuli o'zgaradi: u endi dunyoni ilhom yoki estetik ong bilan emas, balki samaradorlik va texnik imkoniyatlar prizmasi orqali qabul qiladi. Natijada sivilizatsiya jamiyatida ma'naviyatdan ko'ra texnikaviy imkoniyatlarga ishonch kuchayadi, hayot esa murakkab mexanik tizim sifatida idrok etila boshlaydi.

Madaniyatdan sivilizatsiyaga o'tish jarayonining eng yaqqol belgilaridan biri — san'at va diniy qadriyatlarning ma'nosizlasha boshlashidir. Shpenglarning talqinida san'at madaniyatning "tili" bo'lib, u madaniyatning ichki ruhiy dunyosini aks ettiradi. Ammo sivilizatsiya bosqichida san'at o'zining dastlabki chuqur mazmunini yo'qotib, tashqi shaklga aylanadi. Bunday davrda san'at ko'proq takroriy, tijoratga yo'naltirilgan, estetik izlanishdan yiroq holda bo'ladi. Asarlarning ichki mazmuni sustlashib, ular badiiy tajribani emas, balki ko'ngilochar funksiyani bajarishni boshlaydi. Diniy qarashlarda ham shunga o'xshash jarayon yuz beradi. Madaniyatning tug'ilish davrida diniy e'tiqodlar ijodiy va ruhiy hayotning markazida tursa, sivilizatsiya bosqichida din asta-sekin shaklga aylanib, ko'proq tashqi marosimlar majmuiga aylanadi. Dinning ichki ruhiy kuchi susayadi, jamiyat esa ma'naviy uyg'oq ongdan mahrum bo'lib boradi. Estetik va diniy qadriyatlarning yemirilishi sivilizatsiya jarayonining muqarrar natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Sivilizatsiya jarayonida bunday o'zgarishlar nafaqat san'at va diniy sohalarni, balki insonning borliqni his etish tarzini ham o'zgartiradi. Shpengler buni madaniyatning ruhiy yuksaklikdan farqli ravishda tashqi ko'rinishlardagi mexaniklashuvga o'tishi deb ta'riflaydi.

Shpengler sivilizatsiya bosqichining yana bir muhim belgisi sifatida metropoliya — katta shahar fenomenini alohida ta'kidlaydi. U kichik madaniy markazlardan farqli ravishda metropoliyani mexaniklashgan, noorganik, massaviy jamiyatning ramzi sifatida tasvirlaydi. Katta shaharlarda yashovchi odamlar ijodiy ruhdan uzoqlashadi, chunki metropoliyaning ritmi insonni ruhiy tinchlikdan mahrum qiladi, hayotni esa sun'iy tartiblar asosida tashkil etadi. Shuningdek, metropoliya madaniyatning "jonli ruhiy makon" emas, balki sivilizatsiyaning "sovuq strukturasi" ekanligini ko'rsatadi.

Metropoliya muhitida “inson massasi” vujudga keladi — bu shaxsiy fikr, estetik sezgi yoki ruhiy boylikka emas, balki kollektiv mexanik xarakterga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhdir. Inson massasi individual dunyoqarashga ega emas, balki tashqi oqimlarga moslashgan holda yashaydi. Bu ommaviylikning kuchayishi san’atning soddalashuvi, siyosatda populizmning kuchayishi va jamiyatda texnikaviy-inert ongning ustuvor bo‘lishiga olib keladi. Shpenglarning fikricha, aynan metropoliya fenomeni sivilizatsiyaning so‘nggi bosqichlarida madaniyatning yakuniy yemirilish jarayonini tezlashtiradi [3. B, 112].

Shpenglarning tarixiy konsepsiyasi o‘z zamonidagi klassik tarixiy maktablarga nisbatan muqobil yondashuvni taklif etadi. U tarixni qat’iy sabab-natija munosabatlari asosida qat’iy chiziqli rivojlanadigan hodisa sifatida emas, balki madaniyatlarning ichki shakllanish ritmiga ko‘ra kechadigan murakkab jarayon deb baholaydi. Bu yondashuv metodologik jihatdan “morfologik tahlil”ga tayangan bo‘lib, madaniyatlarning shakllari, estetik ko‘rinishlari, diniy tasavvurlari va dunyoqarashi ularning ichki “ruhi”ni ochib berishga xizmat qiladi. Shpenglarning tarixni tahlil qilish dasturida taqqiyosiy metod muhim o‘rin tutadi. U turli sivilizatsiyalarni — antik, islomiy, hind, xitoy, mayya va Yevropa madaniyatlarini — bir butun tarixiy tizim sifatida ko‘rib, ularning o‘xshash tsikllar asosida rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu yondashuv unga tarixiy hodisalarni universal modellarga solmaslik, balki har bir madaniyatning o‘ziga xosligini saqlagan holda ilmiy tahlil qilish imkonini beradi. Tarixiy determinizm haqida o‘rtaga tashlangan bahslar aynan Shpenglarning metodologik qarorlari natijasidir. Chunki u har bir madaniyatning bosqichlari doimiy takrorlanadi degan xulosaga kelgan bo‘lib, bu nazariya sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni ko‘rsatishda samarali bo‘lgan.

Shpengler metodologiyasining afzalligi shundaki, u tarixga murakkab, ko‘p qatlamli hodisa sifatida qaraydi. Tarixni faqat siyosiy hodisalar ketma-ketligi sifatida emas, balki ruhiy, estetik, diniy va texnik jarayonlarning murakkab tutashuvi sifatida talqin etadi. Shpengler uchun tarix insoniyat ongining teran jarayonlarining ifodasi bo‘lib, uni tushunish uchun tashqi omillardan ko‘ra ichki tamoyillarni ochish zarur.

Shpenglarning konsepsiyasi XX asrda keng ilmiy muhokamalarga sabab bo‘lgan. Uning nazariyasiga nisbatan tanqidlarning asosiy yo‘nalishlari bir necha guruhlariga bo‘linadi. Avvalo, Shpengler tarixni haddan tashqari umumlashtirib yuborganlikda ayblanadi. Uning madaniyatni tirik organizm sifatida talqin qilishi ilmiy aniqlikdan yiroq deb baholangan. Chunki madaniyatning rivojlanish jarayoni biologik hayot davri bilan bir xil emas, u ko‘plab tashqi va ichki omillar ta’sirida o‘zgarib turadi.

Ikkinchi katta tanqid — Shpenglarning deterministik yondashuvi bilan bog‘liq. U madaniyatning tug‘ilishi va yemirilishini muqarrar jarayon sifatida tasvirlaydi, bu

esa insoniyatning madaniy va siyosiy ongli tanlovlarini inkor etadi. Tanqidchilarning fikricha, madaniyatning taqdiri oldindan belgilangan bo'lishi mumkin emas: inson omili, ijtimoiy islohotlar, iqtisodiy tizimlar va texnik yangiliklar tarixga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir muhim tanqid nuqtasi — Shpenglarning sivilizatsiyalarni izolyatsiya qilingan holda tahlil qilishidir. Uning fikricha, har bir madaniyat mustaqil rivojlanadi, ammo tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, sivilizatsiyalar o'rtasida doimo aloqalar, ta'sirlar va o'zaro o'zlashtirish jarayonlari mavjud bo'lgan. Bugungi global tarix ilmida bunday aloqadorlik sivilizatsiya taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Shu bilan birga, Shpenglarning bashoratlari ham bahsli. U Yevropa sivilizatsiyasining tanazzulga yuz tutishini muqarrar deb baholagan bo'lsa-da, Yevropa davlatlari XX asrning o'rtalaridan boshlab yangi iqtisodiy, siyosiy va texnik yuksalishlarga erishgan. Bu esa uning modelini to'liq deterministik deb qabul qilishning murakkabligini ko'rsatadi.

XXI asrda Shpenglarning “Evropa quyoshining botishi” asari yana dolzarb mavzuga aylandi. Global siyosiy raqobatning kuchayishi, texnik taraqqiyotning haddan tashqari tezlashishi, geosiyosiy markazlarning o'zgarishi va jamiyatda ma'naviy qadriyatlarning susayishi Shpengler g'oyalarining qayta baholanishiga sabab bo'ldi. Ko'plab zamonaviy tadqiqotchilar uning ta'riflagan “sivilizatsiyaning mexaniklashuvi” jarayonini raqamli davrning kengayishi bilan bog'lashmoqda.

Bugungi texnotuzilmalar — sun'iy intellekt, robototexnika, massaviy axborot tizimlari — Shpengler tasvirlagan sivilizatsiyaning texnikaga to'liq tayanishini yaqqol tasdiqlayotgandek ko'rinadi. Ayrim geosiyosiy tahlillarda G'arb dunyosining an'anaviy siyosiy kuch sifatidagi mavqei pasayib, yangi sivilizatsion markazlarning — Sharq, Osiyo, Janubiy Amerika — kuchayib borayotgani qayd etilmoqda. Bu esa Shpenglarning “madaniyat markazlarining o'zgarishi” haqidagi fikrlariga yaqinlashadi [4, B. 32].

Zamonaviy ijtimoiy tahlillarda Shpenglarning “inson massasi” haqidagi g'oyasi ham dolzarblashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, global media maydoni va ommaviy madaniyat inson ongining individual shakllanishiga ta'sir qilayotgan bir davrda Shpenglarning massaviy ongga oid tahlillari keng o'rganilmoqda. Biroq bugungi ilmiy bahslar Shpengler nazariyasini to'laligicha qabul qilmaydi. Mutaxassislar uning ayrim jihatlaridan ilhomlanib, ularni global jarayonlarga moslashtiradi, ammo deterministik yondashuvini qayta ishlab chiqadi. Shmpeglarning nazariyasi bugungi sivilizatsion jarayonlarni tushunishda konseptual ramka vazifasini bajaradi.

Shpenglarning madaniyatlar haqidagi ta'limoti murakkab va ko'p qatlamli nazariya bo'lib, u tarix falsafasining yangi yo'nalishlarini shakllantirgan. Uning

madaniyatni organizm sifatida talqin qilishi, sivilizatsiyani madaniyatning tugash bosqichi deb baholashi, madaniyatlarning mustaqil rivojlanishi haqidagi qarashlari ilmiy yondashuvlarga boy nazariy asos yaratadi. Shpenglarning kuchli tomoni — madaniy jarayonlarni ichki tamoyillar asosida tahlil qilishi va tarixiy jarayonlarga estetik-falsafiy yondashuvni olib kirganidir. Biroq uning nazariyasida bir qator cheklovlar ham mavjud. Avvalo, u madaniyatning rivojlanishini haddan tashqari qat'iy tsikllarga bo'ladi, bu esa tarixiy jarayonlarning serqirra va noaniqliklarini chuqur aks ettirmaydi. Shuningdek, sivilizatsiyaning yemirilishi haqidagi tasvir bugungi global ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning murakkabligini to'liq qamrab olmaydi. Masalan, ayrim davlatlarda sivilizatsiyaning texnik rivoji madaniy taraqqiyot bilan uyg'unlashgan holda ham mavjud bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, Shpenglarning g'oyalari bugungi davrni tushunishda ham ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatlarda texnikaning kuchayishi, massaviy ongning kengayishi, mafkuralarning zaiflashuvi va sivilizatsiyalararo raqobatning kuchayishi uning tasvirlagan modeliga o'xshash elementlarni eslatadi [5]. Bu Shpengler ta'limotining XXI asr sharoitida ham muhim nazariy vosita sifatida saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

XULOSA

Osvald Shpenglarning “Yevropa quyoshining botishi” asari XX asr falsafasi va tarixshunosligida tub burilish yasagan konsepsiyalar qatoriga kiradi. Uning madaniyat va sivilizatsiya haqidagi tasnifi, tarixning siklik talqini, madaniyatning biologik metaforasi, sivilizatsiya bosqichining belgilarini aniqlashga oid fikrlari bugungi ilmiy muhokamalarda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Shpengler tarixga nafaqat voqealar ketma-ketligi sifatida, balki ruhiy, estetik va madaniy jarayonlarning murakkab uyg'unligi sifatida qaragan holda global sivilizatsiyalar tushunchasini kengaytirdi. Garchi uning nazariyasi deterministik yondashuv, tarixiy umumlashtirish va madaniyatlararo o'zaro ta'sirni yetarli hisobga olmaslikda tanqid qilinsa-da, Shpenglarning tahlili bugungi global inqirozlar, texnik taraqqiyot va sivilizatsiyalararo raqobat sharoitida qayta baholanmoqda. Shu jihatdan, uning asari zamonaviy jamiyat uchun nafaqat falsafiy meros, balki sivilizatsiyaning kelajak taqdirini anglashga xizmat qiladigan konseptual vosita sifatida ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Toynbi A. Tarix o'rganish. 1-jild. — Oksford: Oxford University Press, 1934. — 71–72-betlar.
2. Shpengler O. Yevropa quyoshining botishi. Jahon tarixi morfologiyasi chizgilari. I-jild. — Myunxen: C. H. Beck, 1918. — 183–189-betlar.

3. Shpengler O. Yevropa quyoshining botishi. II-jild. — Myunxen: C. H. Beck, 1922. — 112–118-betlar.
4. Hantington S. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va jahon tartibining qayta shakllanishi. — Nyu-York: Simon & Schuster, 1996. — 32–35-betlar.
5. Sorokin P. Ijtimoiy va madaniy dinamikalar. — Nyu-York: American Book Company, 1937. — 105–110-betlar.
6. Turaev B. Madaniyatshunoslik: Darslik. — Toshkent: “Sharq”, 2004. — 480 b.
7. Rafiqov A., Xusanov R. va boshqalar. Falsafa. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. — 592 b.
8. Haydarov M., Jo‘rayev R. Falsafa tarixi. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. — 448 b.
9. Qodirov A. Jahon falsafasi tarixi. — Toshkent: “Fan”, 2005. — 302 b.
10. Qosimov B. XX asr falsafasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008. — 216 b.
11. Rasulov A. Madaniyat falsafasi. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017. — 284 b.